SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 19-mart | 81-8-117-Q/25 | Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori, tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 5-oktabrdagi 01-20/372-sonli xatini ko‘rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1.Tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 5-oktabrdagi 01-20/372-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot va Uchqizil mahallasi hududidan o‘tuvchi mahalliy ahamiyatga ega 4K-602 avtomobil yo‘lining 2 km.dan va 6 km.dan og‘ir vazinli yuk avtomashinalarining harakatini cheklovchi yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3.Tuman yo‘llardan foydalanish DM (T.Tilloyev) ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4.Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari

va yo‘l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5.Tuman IIB YHXB ga mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta‘minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6.“Janub quyoshi” gazetasi tahririyati va tuman hokimligining axborot xizmatiga ushbu qarorning tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishini ta‘minlasin.

7.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

8.Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**